

2025-yil, fevral 3-son



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



Mohira SA'DULLAYEVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com

O'G'UZ SHEVASIDAGI BA'ZI ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN POLISEMANTIK SO'ZLAR: TADQIQ, TAHLIL VA MOHIYAT

Annotatsiya: ushbu maqolada o'g'uz lahjasida keng qo'llaniluvchi ba'zi arab tilidan o'zlashgan polisemantik so'zlarning mohiyati, tahlili va ularning turli asarlar, lug'atlarda kelishi haqida fikr yuritilgan. Shevadagi so'zlarning adabiy tilimizda qanday tavsiflanishi, o'zbek tilining izohli lug'atidagi muvofiq varianti, shuningdek, bugungi kunda hududlarda qay tarzda ishlatilishi misollar orqali qiyoslab o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *arab tili, polisemiya, ko'p ma'noli so'z, o'g'uz, sheva, lahja, adabiy til, lug'at, Alisher Navoiy, leksema, O'zbek tilining izohli lug'ati.*

Аннотация: в этой статье рассматривается сущность, анализ некоторых заимствованных из арабского языка многозначных слов, широко используемых в Огузском диалекте, и их появление в различных произведениях, словарях. То, как слова на диалекте описываются в нашем литературном языке, их соответствующий вариант в толковом словаре узбекского языка, а также то, как они используются сегодня в регионах, было сравнительно изучено на примерах

Ключевые слова: *арабский язык, полисемия, многозначное слово, Огуз, диалект, литературный язык, словарь, Алишер Навои, лексема, толковый словарь узбекского языка.*

Annotation: this article discusses the essence, analysis of some polysemantic words borrowed from Arabic, which are widely used in the Oghuz dialect, and their occurrence in various works and dictionaries. The description of the words in the dialect in our literary language, the corresponding variant in the explanatory dictionary of the Uzbek language, as well as how they are used in the regions today are studied through comparative examples.

Key words: *arabic language, polysemy, polysemous word, Oghuz, dialect, literary language, dictionary, Alisher Navoi, lexeme, Explanatory dictionary of the Uzbek language.*

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlari o'tmishi arab xalqlari madaniyati, e'tiqodi, tarixi, tili, urf-odati bilan bevosita chambarchas bog'liq. VII-VIII asrlarda Arab xalifaligining tashkil topishi va Movarounnahrning ular tomonidan zabt etilishi mahalliy aholi turmushida muhim rol o'ynaydi. Arablar o'zlari egallagan hududlardagi mahalliy dinlarni ta'qiqlab, mavjud dinlarning o'rniga islom dinini joriy qila boshladilar. Islomni targ'ib qilish bilan bir qatorda, arab tili ham yoyila bordi. Arablashtirish siyosatining olib borilishi natijasida, arab tili hukmron til, fan va adabiyot tili bo'lib qoldi.Iqlim va tabiiy sharoitning qulayligi sababli bu hududga arab tilli harbiylar va boshqa xizmatchilarning oilalari bilan ko'chishi avj ola boshlaydi. [1: 200-201.] Arab tilida maktab-madrasalar, bilim beruvchi turli oliy dargohlar tashkil qilina boshlandi. Ijod, davlat boshqaruv tizimi va shu kabi sohalar arab tilida faoliyat olib borishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Mahalliy tillardan foydalanish ko'lami chegaralab qo'yildi. Bu tartib-qoidalar arab tili orqali dunyoga mashhur yunon, rim, hind va Vizantiya ilm-fanidagi yutuqlarni puxta o'rganishga zamin tayyorladi. Forobiy, al-Xorazmiy, Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy kabi qomusiy olimlar dunyo ilm-fanining matematika, mineralogiya, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, mantiq, tilshunoslik, tibbiyot kabi shunga o'xshash sohalarga o'zining beminnat hissasini qo'shdilar.

Shuningdek, hadisshunoslik ilmida Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy va tasavvufshunos Hakim at-Termiziy singari allomalar yetishib chiqdi. Ular islom dini ilmi va yuksalishiga o'zlarining yaratgan asarlari bilan ulkan hissa qo'shdilar.

Ayniqsa, shu zamin farzandi Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga bag'ishlab yozgan asari qimmatli ma'lumotlar beradi. "Uning "Al-mufassal" asari arab tili grammatikasiga bag'ishlangan va yuksak darajadagi asarlardan hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, u arab tili grammatikasiga oid ko'pgina masalalarni grammatikaga bag'ishlanmagan asarlarida ham yechib bergan. "Al-kashshof" asarida ham arab tili grammatikasining ko'pgina nozik tomonlari ustalik bilan ochib berilgan". [2: 14]

Keyingi asrlarda arab tilida yozilgan asarlar birmuncha susaygan bo'lsa-da, biroq leksikamizdagi so'zlarning ko'p qismini shu tildan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Adabiy tilga munosib hissa qo'shgan Alisher Navoiy arab tilining bu xususiyati haqida "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida shunday deydi: "Bu tillarning barchasida arab tili nafislik bilan ajralgan va badiiylik bezagi bilan mo'jiza ko'rsatuvchandirki, bunda hech bir til ahllarining da'vosi yo'q…" [3: 106] Ayniqsa, arab tilining boyligi, ifodaliligi ilmiy terminlar yaratishda juda qulay edi. Bu ham o'rta

asrda yashagan olimlarning arab tilida ijod qilishlariga sababchi bo'lganini alohida ta'kidlash lozim. "Shoirning poetik asarlari tilidagi so'z boyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan so'zlar tashkil qiladi". [4: 110] Alisher Navoiy ijodida ayrim polisemantik so'zlarda qo'llanish jihatdan uslubning ham alohida roli borligini unutmaslik kerak. Shoir arabcha, fors-tojikcha, hindcha va boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarni ham o'z asarlarida yangi-yangi ma'nolarda qo'llagan.

Shuningdek, mamlakatimiz hududidagi toponimlarda arab va arab indikatorli Arabxona, Arabon, Arablar, Araboncha kabi ko'plab joy nomlari uchraydi. Buxoro o'g'uzlari shevalari til xususiyatini o'rgangan A.Allaberdiyev yozishicha, "Buxoro amirligi hududida bo'lgan Qamashi tumaniga qarashli Jeynov (Qashqadaryo viloyati), Qorako'l, Olot, G'ijduvon singari aholi istiqomat qiladigan manzillardagi o'zbeklar asli kelib chiqishlari arablar ekanligini eslashdi. Buxoro viloyatining Qizilqumga tutashib ketgan Qorako'l, Olot tumanlaridagi Bandboshi, Yakqalam, Jat, Arabxona, Arababdal, Arna, Mirpo'lat, Mirzaqal'a, Xirs, Quydim kabi juda ko'pchilik qishloqlarda qadimda arablar yashab o'tishgan. Ularning tashqi ko'rinishi va urf-odatlarida qisman o'ziga xosliklar mavjud. Biroq ular arab tilida so'zlasha olishmaydi.Bu tilni batamom eslaridan chiqarishgan. Bu qishloqlar aholisi shevasi o'z xususiyatiga ko'ra o'g'uz o'zbeklari lahjasiga kiradi". [5:59]

Ko'rinib turibdiki, arab tilining ta'sir doirasi kengligi rang-baranglikni yuzaga keltirganki, shevada qo'llanish bilan birga asrlar davomida turli polisemantik munosabatini shakllantirgan. O'g'uz shevalari leksikasidagi arab tilidan o'zlashgan so'zlar ko'p va xilma-xildir. Maqolada arabcha o'zlashmalar atroflicha tahlil qilindi.

Asosiy qism. Әмәл // эмәл – bu so'z arab tilidan tarjima qilinganda orzular, tilaklar [6: 21] kabi ma'nolarni anglatib, o'zbek adabiy tili va shevalarida semantik o'zgarishga uchragan. Shevadagi 1. Mansab, martaba, lavozim; 2. Chora, iloj; 3. Matematik hisobning har bir turi kabi ma'nolari o'zbek adabiy tilida ham mavjud. 4. Qorabuloq shevasi va Bo'shlari leksikasida ishlatiladigan kundalik ish, faoliyat ma'nosi mavjud: ***Әмәл эдәдірән нәрсәмі уахшї білән*** (Bo'sh; Romitan). So'zning ushbu ma'nosini Xorazm va Qoraqalpog'iston o'g'uz shevalarini o'rgangan olimlar tadqiqotlari va lug'atlarida qayd qilib o'tishmagan. 5. Boshqa o'g'uz shevalarida uchramaydigan, faqat Bo'shda hiyla, nayrang ma'nosi ham mavjud: ***Зор эмәл эттім*** (BO'SH; Olot). Navoiy asarlarida ish, harakat, ijro; mansab [7: 44] ma'nolarida qo'llagan. Bu polisemantik so'zning O'TILda sakkizta ma'nosi izohlangan.

йесәр – arab tilida davlat, mulk; chap tomon, o'ng qo'l [6: 270] kabi ma'nolarni bildirsa, barcha o'g'uz shevalari aholisi nutqida faol ishlatiladi. O'zbek adabiy tilida *есир* leksemasi eri o'lgan, ersiz qolgan xotin; beva, tul deb izohlangan. F.Abdullayev XO'Sh da bu so'zning uchta polisemantik ma'nosi borligini ta'kidlaydi. [8: 52] 1. Bebosh, qaysar kabi ma'nolarni ifodalab, boshqa o'g'uz o'zbek shevalarida qayd etilmagan: Бала гөрдім, сәніндійн *йесәр* баланї гөрмәдім (XO'Sh; Xonqa). 2. Mutakabbir, g'ayir (odam). Bu ma'no ham faqat XO'Sh ga xos bo'lib o'g'uz o'zbek shevalarida uchramaydi; 3. F.Abdullayev izohlagan uchinchi ma'noda o'zbek adabiy tiliga nisbatan boshqa ya'ni ayol kishini bildirmay, onasi o'lgan, otasi bor bolaga nisbatan qo'llanishi keltirilgan. 4. BO'Sh da so'zning yana bir ma'nosi mavjud bo'lib, unda *йесір* leksemasi fonetik jihatdan XO'Sh dan farq qilib, ota yoki onaning qaysi biri vafot etgan bo'lsa ham ahamiyatga ega bo'lmaydi va shu so'z umumiy holatda qo'llanaveradi. O'zbek tilining o'g'uz shevalarini o'rgangan O.Madrahimov bu so'zni boshqa *йесер* shaklda izohlaydi va ikkita polisemantik ma'nosini qayd etadi. 1. Sho'x, xuligan; 2. Chaqqon, dastyor ma'nolarini ko'rsatib o'tadi. Turkman tilida *есер* shaklida qayd qilinib quv, ayyor, ko'p narsa biluvchi [9: 143] ma'nosini anglatadi. Bu leksik birlikdan xulosa qilish mumkinki, shevaning ichki imkoniyatlarida so'zlarning ko'p ma'nolilik xususiyati kengligi bilan ajralib turadi.

Мәрәз – arab tiliga xos bo'lgan leksik birlik barcha o'zbek shevalari va adabiy tilida faol qo'llanadigan leksema hisoblanadi.Bu so'z O'TILda quyidagicha izohlangan 1. Yiring olgan, fasod bog'lagan yarani bildirib, eskirgan so'z ekanligi qayd etilgan. Aynan shu ma'no BO'Sh va XO'Shda ham qo'llanilib, hozirgi kunda ancha passivlashib eskirgan so'zga aylangan. [10: 179] 2. So'zning yana bir ma'nosi adabiy tilga xos bo'lmay, barcha o'g'uz shevalarida insonning jarohat olib, yiring boylangan joyini bildiradi 3. So'nggi yillarda мәрәз leksik birligining shaxsga nisbatan haqoratni ifodalashi ham kuzatilmoqda: *Ші мәрәз жәнімә дегді, нехел қутїлсамкан* (BO'Sh, Qorako'l). Bundan tashqari o'g'uz shevalarida ko'chma ma'noda ham qo'llanib, illat, zararli nuqson, yaramas odat ma'nolarida ham ishlatiladi: *Әдәмләрдә мәрәз әдәт йамәнәм гужәйіп гідән* (XO'Sh; Hazorasp). Mumtoz adabiyotimizda ham мәрәз so'zi keng ko'lamda foydalanilgan. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida ham bu so'zga ko'p bora murojaat etadi:

Hajr aro dardimg'a rahm qilmasa ul ko'z ne tong,
Kimsa marazg'a iloj topmadi bemordin. [11: 373]

Demak, shoir misralarda kasallik, dard, illat kabi ma'nolarda qo'llaganini kuzatish mumkin.

Ға:рат – arabchadan o'zlashgan leksik birlik aslida "ғарат" bo'lib, "qo'qqisdan hujum" ma'nosini bildiradi. O'g'uz shevalariga hosila ma'no hisobiga yangi polisemantik ma'no qirralarini yuzaga keltirgan. O.Madrahimov tadqiqotlarida so'zning ikki ma'nosiga to'xtaladi. 1. Vayron, ostin-ustun: *әксінні ға:рат қїдї.* (JQO'Sh; Qarnoq) 2. So'kish, haqorat qilish: *ға:рат қїлмақ* (JQO'Sh; Qarnoq) kabi. BO'Shlarida ot+fe'l shaklda *ға:рат едмәк* tarzida qo'shma fe'l bo'lib, egallamoq, bosib olmoq ma'nolarda qo'llanadi: *Хамсайамїз ҳәммә йері ға:рат едіптір.* (BO'Sh; Qorako'l) O'g'uz shevalaridagi ға:рат so'zi mumtoz adabiyotimizda, jumladan,

A.Navoiy asarlarida talon qilish, barbod berish, bitirish kabi ma'nolarda uchraydi. Masalan, *Ақлу ҳуш ғорат этмак* – Aql-u hushini olmoq, aql-hushdan begona qilmoq; *Ғорати дин қилмоқ* – Dinni oyoq osti qilmoq kabi ma'nolarda uchraydi.

ла:зымада – o'g'uz o'zbek shevalarini o'rgangan O.Madrahimov tadqiqotlarida bu leksik birlikka to'xtalib, asosan, XO'Shga oid ishlarida quyidagi ma'nolarni bildirishi ko'rsatilgan. [12: 156]. Olim ikki ma'nosini 1. Marosim, fotiha, biror munosabat bilan biror joyga borish; 2. Xotinlar lozimi ma'nosini keltirgan, ammo misollar bilan izohlamagan. BO'Sh leksikasini o'rgangan A.Alaberdiyev dissertatsiyasining oxirida keltirgan lug'atida ***лэзӥм*** shaklida farqlanish bilan qo'llanishini yozgan. " .... 1. Ayollar ishtoni: ***Қизим йодиннан чиқмасин айолларин лозимини кир йувонда кӯзиң олдина сермидилар*** (Qorako'l t., Qandim q.) 2. Dafn marosimi: **Потйа-лозима** ***гийиш учун бозора боранда гӯк метирийол аливалишим гарак*** (Qorako'l t., Qorahoji q.)" [13: 203] Shuningdek, F.Abdullayev XO'Sh ning Urganch, Xiva va Gurlan tumanlarida BO'Sh dagi dafn marosimi, ta'ziya, aza ma'nolaridagi fotiha [8: 64] ma'nosi qo'llanishini qayd etgan. Ko'rinib turibdiki, o'g'uz shevalarida uchraydigan polisemantik so'z O'TIL ning hozirgi paytgacha nashr uchun tayyorlangan biror nashriga kiritilmagan. Lug'atda esa uning omonim shakli qayd etilgan.

Ва:ж // важ – arab tilida vajh shaklida qo'llanib, polisemantik leksik birlikdir. Bu so'z o'zbek adabiy tilida uch ma'noni ifodalaydi. A.Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida vajh leksik birligi sabab, bahona, yo'l kabi ma'nolarda qo'llagan bayt bor:

Bularga vojib erdi intizomi,
Adolat vajhidin bermak nizomi. [14: 37]

Shuningdek, shoir boshqa o'rinlarda yuz, bet, chehra kabi ma'nolarda qo'llagan.O'zbek shevalarida qo'llanadigan polisemantik arabcha so'zlar ma'nosidagi o'zgarishlarni ya'ni o'zlashgan arabcha so'zlardagi ma'no o'zgarishlari BO'Shlarida ham mavjud va ular o'zbek tilidagi ma'no o'zgarishlari bilan o'zaro mosdir. BO'Sh "... вәж 1.Narsa, xarid qilingan u-bu buyum va narsalar: *Бәшым бөзәрдән көп вәж гетирди* (Olot; Qassob bayot). 2. Sabab, bahona: *Ҳәр хыл вәж гөрсәтип ишә гелмеди* (Romitan; Qoqishduvon)" [13: 186] kabi ma'nolarini ko'rsatadi. F.Abdullayev [8: 30] va O.Madrahimov [12: 123] larning olib borgan tadqiqotlarida (ва:ж tarzida ishlatilishi ko'rsatilgan) keltirgan misollar Xorazm va Buxoro o'g'uzlari til xususiyatlari bir-biridan yaqqol farqlanmasligini aytib o'tish lozim. Ushbu o'zlashma XO'Shlari, BO'Shlari va shu kabi boshqa o'g'uz shevalarida so'zlashuvchi aholining tarixiy ildizlari bir ekanligini ular nutqida ma'no semalari hali hamon saqlanib qolganini izohlagan misollar ham isbotlaydi.

Луқма – bu so'z o'zbek tili va uning shevalariga arabchadan t tovushi tushib qolishi orqali o'zlashgan ya'ni "luqmat" og'ziga olmoq ma'nosini anglatgan. O'g'uz shevalarida bu so'zning ma'no xususiyatlari o'rganilganda o'zbek adabiy tilidagi ko'p ma'noligi tubdan farq qilmaydi. XO'Shlaridagi so'zlashuvchi aholi nutqida 1. Umuman yeyimlik; 2. Oz miqdorda yeyiladigan ovqatlik [12: 156] ma'nolari mavjud. BO'Shlarida esa yuqoridagi ma'nolari bilan birga gap tashlamoq ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Turkman tilida bir bo'lak, bir og'iz, bir yutum oziq-ovqat ma'nosidan tashqari isbot, dalil, bahona [9: 420-421] kabi ma'nolari qayd etilgan. A.Navoiy asarlarida bir yutum ovqat, ozgina ovqat, bir osham [7:342] ma'nolarda ishlatilgan.

халпа // хәлпа – arab tiliga oid *халфа* so'zi o'g'uz shevalarida o'zgarishga uchragan fonetik shakli hisoblanadi. Polisemantik so'z vaqt o'tishi bilan qo'llanish ko'lami passivlashib borayotgan leksik birlikdir. Xorazm va Qoraqalpog'istondagi o'zbek o'g'uz shevalarida 1. Savodli ayol; 2. Baxshi ayol; 3. Ashulachi ayol [12:182] kabi ma'nolarni ifodalaydi. BO'Sh leksikasida birmuncha farqlanib, erkak va ayol kishilarga nisbatan bir ko'rinishda qo'llanaveradi. Vohada so'nggi yillarda ko'proq mahalliy og'zaki ijod namunalarni ijro etuvchi guruh, tarkib tushuniladi. Turkman tilida "халӣпа" *Muallim, ustoz; yo'ldosh, do'st* [9: 699] ma'nolarni bildiradi..O'TILda so'zning qo'llanish ma'nolari o'g'uz o'zbek shevalaridan birmuncha farq qiladi. Buni o'rganilayotgan o'zbek o'g'uzlarining qadriyat va urf-odatlari hali unutilmay, undagi sheva bilan bog'liq lisoniy tushunchalar sof holda saqlanayotgani bilan izohlash mumkin.

ҳәләк // ҳеләк – o'zbek adabiy tilida o'lim, o'lish, vafot etish, halok bo'lish kabi bir tushunchani ifodalab, aslida arab tilida fojiali o'lim topmoq ma'nosini bildiradi. Ammo hozirgi o'g'uz shevalarida turli ma'no ottenkalarining o'sib chiqishi orqali polisemantik xususiyatlarini yuzaga keltirgan. O'g'uz shevalari leksikasida ish-harakatning holatini anglatuvchi leksik birlik quyidagi (1. Halok bo'lish; 2. Bekorga ovora bo'lmoq; 3. Charchamoq, tobi qochmoq) [12:183] ma'nolarda ishlatiladi:Magazīna bərsəm nən yoq əkən *ҳәләк bəlip* bərıp gəldım (XO'Sh; Tuproqqal'a). Turkman tilida *ҳеләк* – 1. Qurbon bo'lmoq, o'lmoq; 2. Natijasiz mehnat qilmoq [9: 710] ma'nosini ifoda etadi. Odatda, o'zlashma so'z ot+fe'l qolipda bo'lmoq, etmoq va ba'zan qilmoq fe'llari bilan aloqaga kirishadi. Шь гүн ӥссӥда *ҳеләк* вөлдим (BO'Sh; Olot) kabi.

равақ – o'zbek shevalarida o'zlashma so'z uchta omonimlikni hosil qilgani va har bir omonimligi o'zining polisemantik xususiyatini yuzaga keltirgani bilan ajralib turadi [10: 224]. Ammo o'zbek tilining izohli lug'atida arab tiliga oidligi va faqat polisemantik xususiyati izohlangan. Bundan ko'rinadiki, o'zbek shevalarida adabiy tilga xos bo'lmagan omonimlik variantlari mavjud. Shu paytgacha qilingan o'g'uz shevalariga oid tadqiqot ishlarida atroflicha ochib berilgan. O.Madrahimov o'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi bag'ishlangan nomzodlik ishida *равақ* ikki ma'nosini keltirib o'tadi: 1. Eshik qo'yilmagan ochiq deraza o'rni; 2. To'la ochiq ma'noda [12: 146]. Biroq olim misol bilan izohlab bermaydi. Shunday holatni

F.Abdullayevning "Xorazm shevalari" lug'atida ham kuzatamiz: 1. Ravoq; 2. Ikki ustunning oralig'i, ko'prik usti; 3. Boloxona devoriga shabada kirish uchun qo'yilgan teshik [8: 76]. Janubiy Qozog'istondagi ayrim o'g'uz o'zbek shevalarida yuqorida izohlangan ma'nolardan tashqari alohida mustaqil ko'rsatgichga ega ma'nolar mavjud: 1. Boloxona; 2. Tom ustiga qurilgan ombor (Qoramurt, Qarnoq) [10: 224] kabi. Buxoro o'g'uzlari leksikasida so'zning ikki ma'nosi qayd etiladi: 1. Uy ichidan shiftga yaqin joyga o'rnatilgan kichkina derazacha; 2. Paxsa uyning ichidagi deraza oldiga narsa qo'yish uchun mo'ljallangan joy (BO'Sh; Qoqishduvon) kabi. Hozirgi kunda barcha o'g'uz shevalarida *равоқ* so'zining ko'pgina ma'nolari iste'mol doirasi chegaralangan yoki arxaik ko'rinishga kelgan. Izlanishlar davomida katta avlod vakillari nutqida leksik birlikni qo'llanishi kuzatilsa, yosh avlod vakillari so'z haqida umuman tushunchaga ega emasligi ko'zga tashlandi.

Biroq so'zning qaysi tilga tegishli ekanligi borasida muammoli fikrlar bor. Mumtoz adabiyotimizga bag'ishlangan lug'atlarda *равоқ* so'zi fors-tojikcha ekanligi qayd etilib, katta binolarning ichidagi yoki oldidagi yarim doira qilib ishlangan qismlari [7: 519] ni bildirishi ko'rsatilgan. Sh.Rahmatullayev "bu arabcha so'z *рiвāқ(un)* shakliga ega [15: 321] o'zbek tiliga *i* unlisini *a* unlisiga, cho'ziq *ā* unlisini *â* unlisiga almashtirib qabul qilingan: … o'zbek tilida "binoning old tomonidagi peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan ko'rkam qismi" anglatishini bildirib, so'z arab tiliga tegishli ekanligini misollar bilan aniq izohlagan.

мәлләк – so'z o'zbek lahjalarining o'g'uz shevalariga xos bo'lib, asosan, Urganch, Xiva, Xonqa tumanlari va Buxoro o'g'uzlarining ayrim qishloq shevalarida saqlangan. Bu leksema o'zbek tili bilan aloqador lug'atlarda qaysi tilga tegishliligi qayd qilinmagan bo'lib, ozarbayjon tilining "Arab va forscha so'zlari lug'ati"da arab tiliga oidligi ko'rsatilgan va "mulkdor; yer egasi" [6: 350] shaklida izohlangan. Turkman tilida *меллек* "aholiga xususiy foydalanish uchun bo'linib berilgan yer, uchastka" [9: 437] ma'nosini bildirishi ko'rsatiladi. Xorazm o'g'uzlarida polisemantik o'zlashma 1. Xususiy mulk, boylik; 2. Tomorqa [12: 126] kabi ma'nolarni ifodalaydi. BO'Sh ga oid qilingan ishlar va lug'atlarda *мәлләк* leksemasi to'g'risida ma'lumot uchramaydi. BO'Sh bo'yicha qilingan ekspeditsiyamiz jarayonida shevani yaxshi saqlayotgan qishloqlar nutqida tomorqa ma'nosida ishlatilishini aniqladik va leksik birlik ko'proq katta avlod vakillari so'zlashuviga xos bo'lib, yosh avlod ko'proq *дамарқа* so'zini ishlatishini kuzatdik: Қїşда *мәлләгі* сувлəп білмəнімçін, йәздә йахşї пейдә едіп білмәдім (BO'Sh; Qorako'l) kabi.

Xulosa qilish mumkinki, o'zbek tilining o'g'uz shevalari vakillari leksikasida asrlar davomida arab tilidan o'zlashgan so'zlarning katta foizini ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy kabi tushunchalarni bildirishi va o'zlashmalar, asosan, ot so'z turkumiga tegishli bo'lib, ular aniq va mavhum tushunchalarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston tarixi. IV jildli. 1-jild. –Toshkent: "Fan", 1970.
2. Rustamov A., Zamaxshariy M. –Toshkent: "Fan", 1971.
3. Navoiy A. Asarlar. O'n besh tomlik. 14-tom. –Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi badiiy asabiyot nashriyoti", 1967.
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent, "Fan", 1985.
5. Allaberdiyev A. Buxoro o'g'uz shevalarining leksik qatlamlari. –Toshkent: "Abu matbuot-konsalt" nashriyoti, 2016.
6. Arabcha va forscha so'zlar lug'ati. – Boku, 1967.
7. Navoiy asarlari lug'ati. –Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", (Tuzuvchilar – Shamsiyev P., Ibrohimov S.)1972
8. Abdullayev F. O'zbek tilining Xorazm shevalari 1. – Toshkent: "O'zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti" 1961.
9. Түркмен дилиниң сөзлүги. Ашгабат, "Ылым", 1962.
10. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: "Fan", 1971.
11. Navoiy A. Turkiy adabiyot durdonalari.6-kitob. –Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
12. Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasini o'rganish masalalari. – Toshkent, "Fan", 1973.
13. Allaberdiyev A. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasi. Dissertatsiya ishi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2018.
14. Navoiy A. Farhod va Shirin. –Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2006.
15. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. Изд. М., "Русский язык", 1976.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. –Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2021.

Shartli qisqartmalar:
BO'Sh – Buxoro o'g'uz shevalari
XO'Sh – Xorazm o'g'uz shevalari
O'TIL – O'zbek tilining izohli lug'ati
O'g'uz – O'zbek tilining o'g'uz lahjasi
JQO'Sh – Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari
q. – qishloq
t. – tuman

Rayxan Bazarbayeva. O'quvchilarning kreativ fikrlashi negizida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari............50

Садокат Шониёзова. Особенности и трудности в обучении русской устной речи студентов технических вузов 52

Феруза Искanджанова. Психологические особенности проблемного обучения 55

TADQIQOTLAR

Okila Turakulova. Iskandar – adolatli shoh...58

Matluba Shukurova. Turg'un birikmalarda "ayol" mavzusining ifodalanishi..60

Alijon Safarov. Yangiliklar kun tartibida segment xususiyati 65

Zayniddin Bozorov. Maqollar tadqiqida konsept tushunchasi...67

Xasan Gafforov. Ziddiyatli vaziyatlarda ayol va erkak nutqiy gender stereotiplarining morfologik xususiyatlari 70

Saodat Xasanova. Ingliz tilidagi nisbat ma'nolarining o'zbek tiliga tarjimasi tavsifi...............72

Madina Jalilova. "Boburnoma" asarida toponimiyadagi qo'shnomlilik va ko'pnomlilik talqini 75

Farxod Abdullayev. Muloqotda nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi omillar xususida...77

Mohinir Usmonova. "Toponimika va O'rta Osiyo toponimikasining o'rganilishi: tarixiy va madaniy o'ziga xosliklar" 82

Xurshida Olimova. "Oykonimika va toponimika: janubiy O'zbekiston oykonimlari misolida tizimiy tahlil" 85

Komila Turaboyeva. Ingliz va o'zbek dramaturgiyasining taraqqiyoti va umumiy xususiyatlari 88

Iroda Ochilboyeva. O'zbek va ingliz tillarida odob-axloq leksemalari tadqiqotining nazariy tahlili 90

Gulsanam To'lanboyeva. Internetning informativ va kommunikativ aspektlari integratsiyasi 93

Yulduz Shaymanova. O'zlashma iboralarning o'rganilish tarixi 95

Klara Dusyorova. Imkoniyatlarning qo'sh eshigi 97

Malika Mansurova. Badiiy adabiyotda Cho'lpon siymosining aks ettirilishi 99

Vazira Abdullayeva. "Qutadg'u bilig" asaridagi frazemalarning semantik xususiyatlari 102

Nodira Salixova. Ingliz va o'zbek tili tibbiy lisoniy tizimda ko'chim turlarining o'rni 105

Mehriniso Kenjayeva. "Lison ut-tayr" dostonidagi yo'l va yo'lovchi obrazlari talqini 107

Nurxon Mo'minova. Olamni bilishda ona tilining o'rni 110

Zafar Dadabayev. Kimyo yo'nalishi talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning integrativ metodikasini takomillashtirish modeli...... 112

Jumagul Isaqova. Hozirgi o'zbek bolalar adabiyotining o'rganilishi 115

Shahnoza Alimova. Tilshunoslikda "pora" va "poraxo'rlik" konseptlariga doir nazariy qarashlar... 117

Muazzamxon Baxriddinova. Habib Siddiq qissalari va folklorizm........................120

Tursinoy Jarkinova. Yusuf Shomansurning adabiy-estetik qarashlari..123

Mohira Sa'dullayeva. O'g'uz shevasidagi ba'zi arab tilidan o'zlashgan polisemantik so'zlar: tadqiq, tahlil va mohiyat.........126

Temur Boboyev. Ingliz, o'zbek, rus tillaridagi hajviy she'rlarda qofiyaning lingvistik ahamiyati 130

Gulzada Kamalova. Oqiwshilarda kreativlik kompetentlikti rawajlandiriwda geymifikaciya máseleleri 132

Farangis Abdulloyeva. "Bahouddin Naqshband yoxud buroq vodiysi qissasi" asarida mushuk obrazi 134

Shaxzoda Muxammadaliyeva. Ramz va uning boshqa birliklardan farqi 137

Мархабо Камалова. Фразеологизмы как средство выражения национальной идентичности в русском языке 139

С. Х. Абдуллаева. Развитие навыков академического письма у студентов-бакалавров 141

Одинахон Эшонкулова. Потенциальное словообразование в русском языке: его роль в лексической эволюции 144